



Tadjqiqot.uz

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK
VA TIBBIYOT INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI HAMDA
ISTIQBOLLARI**

**10-NOYABR
2021**

BUXORO, UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SOHA LINGVISTIKASI:
TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT
INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI
HAMDA ISTIQBOLLARI
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari

Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil

© Tadqiqot.uz

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**LINGUISTICS OF DIFFERENT
FIELDS:
PROBLEMS, SOLUTIONS AND
PROSPECTS OF LINGUISTICS
AND MEDICAL INTEGRATION**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

Bukhara, November 10, 2021

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

**ОТРАСЛЕВАЯ ЛИНГВИСТИКА:
ЗАДАЧИ, РЕШЕНИЯ И
ПЕРСПЕКТИВЫ
ЛИНГВИСТИКИ И
МЕДИЦИНСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**

Бухара, 10 ноября 2021 г.

© Tadqiqot.uz

“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.

Buxoro davlat universiteti O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi, O`zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o`tkazdi.

O`zbek, rus, ingliz tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o`zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta`limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

Mas`ul muharrir

**filologiya fanlari doktori,
professor Abuzalova M.Q.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent G`aybullayeva N.I.**

**tibbiyot fanlari doktori (PhD),
dotsent Ixtiyarova G.A.**

**To`plovchi va nashrga
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,
professor Yuldasheva D.N.**

Mazkur to`plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma`lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o`zlari mas`uldirlar.

© Buxoro, Tadqiqot.uz, 2021

1. Белоголовцев Н. По Дэвиду Огилви: 14 советов как написать хороший рекламный текст. <http://spb.media/blog/po-devidu-ogilvi-14-sovetov-kak-napisat-horoshiy-reklamnyy-tekst>
2. Хопкинс К. Научная реклама. Телескоп: наблюдения за повседневной жизнью петербуржцев. – М., 2006. № 4. С. 45-57.
3. Огилви Д. Тайны рекламного двора. 2009. С.–43. www.koob.ru
4. Репев А.П. Язык рекламы. Часть II. http://www.repiev.ru/articles/ad_langII.htm
5. Мамирова Д. Ш. Ўзбек реклама матнларининг социолингвистик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.–Самарқанд, 2021.

Шифокор нутқининг лингвистик хусусиятлари

Тоирова Гули Ибрагимовна *
10.5281/zenodo.5685325

Аннотация: Ушбу мақола шифокор нутқи этикаси ва унинг лингвистик хусусиятларини ўрганишга бағишланган. Унда шифокор нутқида мавжуд сўз, сўз бирикма, гапларнинг лингвистик ҳамда услубий хусусиятлари аниқланган, мисоллар билан изоҳланган. Бундай сўзларнинг таъсир доирасини, яъни прагматикасини илмий жиҳатдан ўрганиш зарурати ҳақида фикр юритилган. Мақолада шифокор-бемор мулоқоти ва унинг этикаси билан боғлиқ маълумотлар илмий асосланган. Нутқимиздаги сўзларнинг кудрати нақадар кучли таъсир воситаси эканлиги ёритилган. Хусусан, беморнинг шифокорга берган маълумоти орқали аниқ ва тўғри ташхис қўйиш ёки шифокорнинг касаллик бўйича берган маълумоти давомида тиббий эвфемизм, перифразалардан ўринли фойдаланишининг аҳамияти мақолада ўз ифодасини топган.

Калит сўзлар: *тиббиёт тили, тиббий эвфемизм, тиббий перифраза, мулоқот, термин, касаллик номи, лексика, лингвопрагматик, нутқ, тушунча, психология*

Кириш. Тиббиётнинг ўзига хос хусусияти доимо инсоннинг кундалик ҳаёти билан чамбарчас боғлиқлигидир. Кўп асрлар давомида шаклланган ва бизнинг давримизда жадал ривожланиб келаётган тиббиёт тили - бу кундалик ҳаёт соҳасини ҳам, илмий билимларни ҳам қамраб оладиган ва ҳар иккала соҳанинг таъсири бўлган маконни ҳам ўз ичига олган улкан кўп босқичли тузилма. Ушбу хилма-хиллик, айниқса, тиббиётнинг оғзаки тилида - шифокорлар ва беморлар ўртасидаги мулоқотда сезилади. Ушбу турдаги алоқа мавжудлиги, албатта, тилшунослар томонидан илмий тушунишни ва амалий тавсифни талаб қилади. "Шифокор - бемор" мулоқотида шифокор учун бемор томонидан айтилган ҳар бир гап касалларнинг ташхисини қўйиш учун муҳим аҳамиятга эга. Масалан:

“Ҳозир(яқин орада) чалинган касаллик тарихига оид сўзлашув” куйидаги сўзлар қўлланилади:

* Бухоро давлат университети филология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD), доцент tugulijon@mail.ru

- *Ҳозир сизни(бош оғриши, бош айланиши, йўтал, кунгил айниш...)безовта қилаяптими?*
- *Кўрсатинг-чи, қаерингиз оғрияпти?*
- *Касаллик қачондан бошланди?*
- *Қанча вақт ...(соат, кун, ҳафта...) ўтди?*
- *Ҳароратингизни(эрталаб, кеч кечқурун.....)ўлчадингизми?*

Шунингдек, бемор ўзининг соғлиғи тўғрисида максимал даражада хабардор бўлиши, у шифокорнинг барча тавсияларини тўғри бажариши, уларни бузмаслиги ёки эътиборсиз қолдирмаслиги шифокор томонидан айтилган ҳар бир сўзга боғлиқ. Шифокор беморни тинглаши, унинг фикрларини идрок этиши, қабул қилиши, ўзининг хайрихоҳлигини билдириши, самимий бўлиши жуда катта аҳамиятга эга. Беморга мумкин қадар кўпроқ ўзи, касаллиги ҳақида гапиришига имкон бериши, ўз диққат-эътиборини беморга қаратиши шифокор этикасининг муҳим томонидир. Саволлар бериб, унинг гапини тўхтатиб қўймаслик, сўзларини охиригача эшитиш, бемор билан ширин муомалада бўлиш орқали беморнинг ишончини қозониш мумкин бўлади. Дарҳақиқат, Саъдий Шерозий: «...Юмшоқ муомала, ширин сўз одам бир гап билан тортиб кетар филни ҳам...», - деб бежиз айтмаганлар[11]. Шифокор беморнинг касаллигини сир саклаши, беморнинг ҳаёти ва соғлиғи учун тиббиёт ходимининг жавобгарлиги, тиббиёт ходимларининг ўзаро муносабати масалалари шифокор этикетига киради[12]. Тиббиёт деонтологиясига мувофиқ, тиббиёт ходими беморга катта эътибор бериши, унинг соғлиғини тиклаш ёки касаллик азобини енгиллатиш учун ўз билимини сарфлаши, беморга унинг соғлиғи ҳақидаги фақат фойда келтира оладиган маълумотларни айтиши, беморнинг шифокор билан сирдош бўлишига эришиши зарур. Беморнинг касаллиги ҳақида унинг иштирокида ҳамкасблари билан сўзлашиш шифокор этикетига тўғри келмайди. Шифокорнинг онги, савияси, маданияти, дунёқараши, билими унинг қайси жамиятда яшаётганлиги билан чамбарчас боғлиқ. Бу муносабат замон талабига мос равишда ижобий томонга ўзгариб боради. Бу ўзгариш шифокорнинг юксак инсоний фазилатларида, софдиллигида, зийраклигида, одамийлигида намоён бўлади.

Шифокорнинг касалликлар бўйича берган маълумотларига эътиборни қаратамиз: ”Витилиго – тери касалликлари орасида кенг тарқалгани бўлиб, тери соҳасида яллиғланмаган ҳар хил шаклларга ва ўлчамларга эга бўлган оқ доғларнинг пайдо бўлиши билан ифодаланади. Бу касалликнинг келиб чиқишига кўплаб омиллар сабаб бўлади. Асаб, эндокрин ва иммунитет тизими ва липидлар перекис оксидланиши тизимининг бузилиши ҳамда хужайраларни ўз-ўзини емириши, шунингдек, терининг микроэлемент таркиби ва метаболик жараённинг ўзгариши шулар жумласидандир”[15]; “скрофулодерма касалликда тери соҳаларида дастлаб яллиғланган доғли тошмалар тарзида пайдо бўлади, улар сатҳида бир неча соатлар ўтгандан сўнг эса тўғноғич катталигида бўлган юмшоқ қобиғли пуфакчалар (флектеналар) пайдо бўлади. Пуфакчаларнинг атрофи қизариб, ҳажми катталашиб боради. Флектеналар қобиғи бурушқоқ ва ёрилувчан бўлиб, улар таркибида йирингли ёки қонли суюқлик кузатилади, кейинчалик улар юпка

калинликдаги қатқалоққа айланади. Касаллик давомийлиги ўртача 2-3 ҳафтани ташкил этади”[7].

Тадқиқотлар таҳлили. Тиббиётга бағишланган мақолалар ва дарсликларнинг аксарияти шуни кўрсатадики, ушбу манбаларда касаллик номи илмий термин сифатида изоҳланади ва қўлланилади. Аммо шифокорлар беморлар ўртасидаги диалогларда айнан шу сўзлар нутқни чиройли ифодалаш, беморни чўчитмаслик мақсадида тиббий эвфемизмлардан ўринли фойдаланадилар. Чунончи, шифокорлар нутқида “қўлингиз гул очибди”, “терида ширинча тошибди” каби эвфемик бирликлар қўлланилади. Ўзбек тилшунослигида тиббий эвфемизмларнинг лингвистик хусусиятлари Н.Ғайбуллаева томонидан тадқиқ қилинган[13].

Дунё тилшунослигида тиббиёт лексикасининг турли қирралари, жумладан, лексик-семантик, услубий-функционал, лингвопрагматик, гендер хусусиятлари, шу соҳага оид терминлар бўйича қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда[1,2,3,5,7]. Шифокор ва бемор мулоқотидаги тиббий лексемаларни антропологик, концептуал аспектда текшириш, этносоциал қирраларини аниқлаш ўз ечимини кутаётган муҳим масалалардан биридир.

Маълум бир тушунчанинг инсон учун ёқимли эшитилиши мақсадида ўз нутқида жозибадор, образли бирликлардан унумли фойдаланади. Жумладан, шифокорлар ҳам ўз нутқида перифрастик бирликларга мурожаат қиладилар. Бунда фаолият билан алоқадор ҳаракат ва ҳолатларнинг салбий аломатлари яширилиб, пардалаб баён этилади. Чунончи, буюк устун (тана), даракчи белгилар (аура), замонавий тиббиётнинг душмани (интернет), кўкрак сути (озуқа), мўъжизавий неъмат (она сути), тана қироли (юрак), тиб илми (тиббиёт), тождор вирус (касаллик), тушсиз уйқу (кома ҳолати), ширин нафас соҳиби (ўпка), қадди-қомат тахти (бел), қулоқ гуллаши (карлик), ҳаёт нури бериш (эмизиш), ҳаёт тимсоли (инсон) шифокорлар нутқида кузатиладиган перифразалар ҳисобланади[3,4].

Шифокор нутқи бемор психологик ҳолатини бошқаришнинг асосий воситасидир. Оғир дардга чалинган бемор учун бир оғиз сўз даводир. Тўрт мучаси соғлом инсонга ғазаб, жаҳл, нафрат билан айтилган сўз ўлимга элтувчи заҳардир. Чунончи, қуйидаги сўз ва ибораларга эътиборни қаратайлик:

- *Соғ- омонмисиз? – эшитиб қалбингиз ҳузур топади.*
- *Нима дейсан? – юрагингиз тўхтагандек ҳис қиласиз, гўёки дунёда ортиқчадек сезасиз ўзингизни.*
- *Соғлигинг яхшими? – яна яшагингиз келади.*
- *Қачон қарама касалсан-а!? – дардингиз ўн чандон кўпаяди.*
- *Хафа бўлма – хайрият, кимдир менга қайғуряпти.*
- *Ўзинг айбдорсан! – ўлганни устига чиқиб тепши...*
- *Бахтли бўласан! – бахт сари учушига биринчи қанот.*
- *Бу кетишда ҳеч қачон бахтли бўлмайсан! – орзуга ўлим.*
- *Қўлингдан келмайди, овора бўлма! – оёқдан чалиб йиқитиши.*
- *Албатта элайсан, сенга ишонаман – юқорига чиқши учун зина.*
- *Билмадим, бу кетишингда – яхши кунларга бўлган ишонч.*
- *Ҳаммаси яхши бўлади – Эртанги кунингга умид.*

Юқорида санаб ўтилган икки оғиз сўз кимгадир қанот бағишлаши ёки яна икки оғиз сўз қанотини синдириши ёки тузалиш ўрнига давосиз дардга чалиниши мумкин. Шунинг учун шифокор бемор дардига дори билан эмас, сўз билан даво топмоғи керак. Унинг маҳорати шунда кўринади. **Шифокор кучли рухшунос ҳам бўлмоғи лозим.** Инсон руҳиятини билмаслик, етук шифокор бўлишга ҳам ҳалақит беради. Немис психотерапевти(келиб чиқиши Эронлик бўлган) Нусрат Пезешкиан биринчилардан бўлиб, айнан қандай сўзлар инсонда касалликни келтириб чиқаришини исботлаб берган. Инсоннинг ўз ички руҳий аҳволдан келиб чиқиб айтадиган сўзлари ўзининг саломатлигига сингиб борар экан. Инсон физиологик органлари ишига бевосита таъсир қилувчи сўзлар-органик нутқ ҳам деб аталади. Қанчалик бакувват бўлманг, ўзингизга айтилган қуйидаги сўзлар саломатлигингизга путур етказди. Баъзи пайтларда маълум қийинчиликлар ичига кириб бориб, ғазаб, жаҳл, нафрат билан айтган сўзлар органларга буйруқ, команда бериш кўринишини бажариб, маълум аъзоларнинг ишини ўзгартиришга сабабчи бўлади[4]. Масалан: ”Барчаси менинг бўйнимда, муаммолар менинг бўйнимда” деганларда - остеохондроз ривожланиши; “Барчаси жонимга тегди” деганларда - ўсмалар ривожланиши” “ Юрагимга қаттиқ олдим” деганларда - юрак инфаркти ривожланиши; “Менга муаммолар бош оғриғи бўлди” деганларда - мигрень ривожланиши; “Қонимни ичди деганларда - қон касалликлари ривожланиши; “Сабр косам тўлди” деганларда - гипертония ривожланиши; “Эшитгим келмайди, ўчир” деганларда - гаранглик ривожланиши; “ Асабимни синама” деганларда - депрессия ривожланиши; “Ҳаётимда қувонч йўқ” деганларда - жигар, ўт қопи касалликлари, семизлик ривожланиши; “Ўз-ўзини ейиш, бировларни ишини ҳазм қила олмаслик - ошқозон яра касалликлари ривожланиши”; “Ўлгудек чарчадим” деганларда - урологик хасталикларнинг ривожланиши олимлар томонидан исботлаган[10].

Хулоса. Демак, айтиладиган ҳар бир гапимиз ё фойда ёки зарар бўлиши ўзимизга боғлиқ экан. Шундай қилиб, нутқда воқеланган сўзнинг таъсир доирасини илмий жиҳатдан ўрганиш тилшунос олимлар олдида турган муҳим вазифадир. Чунки сўзнинг нақадар кучли таъсир воситаси эканлиги шифокорнинг касаллик бўйича берган маълумоти ва бемор билан олиб борган суҳбати давомида тиббий эвфемизм, перифразалардан ўринли фойдаланишида ўз ифодасини топган.

Адабиётлар:

1. Абрамова Г.А. Медицинская лексика: основные свойства и тенденции развития: дис. ...канд. филол. наук. – Краснодар, 2003. – 312 с.
2. Агаджанян С.А. Вербальная коммуникация «врач – пациент» в функционально-стилистическом аспекте (на материале английского языка): дисс...канд... наук. – Москва, 2018. – 177 с.
3. Аҳмадова У.Ш. Перифраза турлари ва уларнинг матндаги ўрни // Тил, таълим, таржима халқаро журналі.– Тошкент, 2020. № 4. – Б. 81-87.
4. Культура общения врача и студента. (Электрон ресурс): <https://studfiles.net/preview/548345/>
5. Малыгина Е.Н. Средства смягчения высказывания в медицинской речи: автореф. дис. канд. филол. наук. Самара, 2007. – 56 б.

Annotation. The article covers the use of vocabulary as a terminology in the field of Medicine and serves to form medical terms. The expression of medical terms in the form of a word combination and a specific type is analyzed on the basis of the theory of Uzbek substantial syntax. The specificity of speech to a particular field of speech in word combinations is evidenced by the medical [I~O] device formations.

Key words: *medicine, medical terminology, word combination, linguistic syntactic mold, medical linguistics*

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida soha lingvistikasi, terminologiya, lug‘atchilik, umuman, davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyati paydo bo‘ldi. Bunga sabab shuki, “Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta‘minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi”. [Mirziyoyev, 2019:1]

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini yanada yuksaltirish uchun uning barcha sohalarda birdek qo‘llanilishi, milliy tilning sohaviy tushuncha va atamalarni to‘liq qamrab olishiga erishish lozim. Buning uchun Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev nutqida qayd etilgan “turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish”, ya‘ni soha tilini milliyashtirish, sohalarda mavjud xorijiy terminlarni milliy tildagi muqobili bilan almashtirish, yangilarini yaratish zarur. Tabiiyki, bu vazifalar tilimizning lug‘aviy va sintaktik imkoniyatlarini soha lingvistikasi doirasida o‘rganishni taqozo etadi. O‘zbek tilining tibbiyot sohasi termin va atamalarini qamrab olishi, tibbiy terminlarni shakllantirish imkoniyatlarini o‘rganish ham ayni yo‘nalishda tadqiqot olib borishni talab qiladi.

Jahon tilshunosligida inson lisoniy zaxirasining katta qismini tashkil etuvchi, muayyan sohalarga oid tushunchalarni ifodalab, ushbu soha mutaxassislarining muloqoti uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi terminologik birliklarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj XX asr o‘rtalarida kuchaydi. Bugungi kun uchun muhim bo‘lgan, ijtimoiy muhit taqozo etayotgan tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bu sohalar leksikasi, ya‘ni terminologiyasini tadqiq qilishdir. [Shirinova, 2020:4]

Tilshunos S.Nazarova tibbiyot sohasiga oid birliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan maqolasida “o‘zbek tilshunosligida tibbiyot terminologiyasi masalalari ko‘plab tadqiqot va bahs-munozaralar markazida turganligi, tibbiyot sohasiga oid terminlar tizimi, uning tabiati xususida turli qarash va fikr-mulohazalar shakllangan bo‘lsa-da, fanda mazkur muammoni o‘rganish ehtiyoji susaymaganligini asoslashga harakat qilgan. [Nazarova, 2021:48]

Chindan ham, tibbiyot va tilshunoslik birlashgan chegarada tib ilmi, sog‘liqni saqlash, davolash haqidagi bilimlarni mujassam etgan tibbiyot terminologiyasi masalalari soha lingvistikasida dolzarb hisoblanadi. Tibbiyot tili,

* Buxoro davlat universiteti Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti shahnoz-87@mail.ru

МУНДАРИЖА

Rasmiy ochilish. Tabriklar		
<i>Hamidov O.H.</i>	<i>Rasmiy ochilish</i>	6
<i>Inoyatov A.Sh.</i>	<i>Tibbiyot va til mushtarakligi</i>	8
<i>Daminov M.I.</i>	<i>Til va madaniyat</i>	9
<i>Qahhorov O.S.</i>	<i>Davlat tili - millatning tirik nafasi</i>	10
<i>Xuseynova A.A.</i>	<i>Soha lingvistikasini rivojlantirish – davr talabi</i>	11
<i>Aslonova E.S.</i>	<i>Государственный язык – неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства</i>	12
Yalpi majlis ma’ruzalari		
<i>Mengliyev B.R.</i>	<i>Tilshunoslik samara bersin.</i>	15
<i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida</i>	17
<i>Чудакова В.П.</i>	<i>Психология пациента и этика врача</i>	22
<i>Ixtiyarova G.A.</i>	<i>Ginekologik kasallikni ifodalovchi tibbiy terminlar talqini</i>	25
<i>Мўратбек В.Қ.</i>	<i>Professor Q.Жўбанов уеңбектериндеги сөзтаңым негиздери (Q.Жўбанов сөзтаңымындаг ‘ы лексикология мәселелери)</i>	27
<i>Adilova S.A.</i>	<i>Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)</i>	36
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>O‘zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar</i>	40
1-sho‘ba. Tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari		
<i>Ahmedov B.Y.</i>	<i>Rus va o‘zbek tillarida so‘zlarning o‘zaro tobe bog‘lanishi: boshqaruv kategoriyasi</i>	42
<i>Akhmedov A.R. Po‘latova S.M.</i>	<i>O‘zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish</i>	46
<i>Adizova N.I.</i>	<i>Leksik birliklarning milliy o‘zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)</i>	50
<i>Elova D.Q.</i>	<i>O‘zbek tili milliy korpusi uchun so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlarni teglash masalasig oid</i>	55
<i>Fayazova D.S.</i>	<i>Methodological approach in teaching process</i>	61
<i>Fayazova D.S. Shirinboyeva B.M.</i>	<i>Empowering languageskills through modern methods</i>	65
<i>Jo‘rayeva D.R. Qo‘shayeva N.E.</i>	<i>O‘quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari</i>	68
<i>Kurbonov A.M.</i>	<i>Tasks of effective use of the uzbek language</i>	71
<i>Mengliyev B.R. Hamroyeva Sh.M. Elova D.Q.</i>	<i>Qirg‘iz va yoqut tili avtomatik morfoligik tahlil vositalari tajribasidan</i>	75
<i>Muxtorov E.M.</i>	<i>Vrach kasbiy mahorati tuzilmasida kommunikativ kompetentlikning o‘rni</i>	79
<i>Мўратбек Б.Қ. Саламат Э.С.</i>	<i>Этнолингвистика – этностық болмысты ұлттық тіл арқылы таңым білу(Аймақтық лексика негизінде). Ethnolinguistics- knowledge of ethnic identity through the national language (based on regional vocabulary).</i>	84
<i>Orifjonova F. Orifjonova M.</i>	<i>Critically discussing student teachers' ideas</i>	88

<i>Ortiqova G. H.</i>	<i>Harakat tarzi shakllari va nutq</i>	93
<i>Saduaqas N.A.</i> <i>Ibragimov T.A.</i>	<i>Qazaq tilindegi dybyys saykestigi turaly</i>	97
<i>Sayfullayeva R.R.</i> <i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Til – millat ma'naviyati va madaniyati takomilining bosh masalasi</i>	102
<i>Tosheva D.A.</i>	<i>The use of examples of folklore in the description of the person</i>	104
<i>To'yeva Z.N.</i>	<i>Bayon –o'quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi</i>	111
<i>Salomova M.Z.</i>	<i>The role of teaching speaking through technology</i>	116
<i>Shoimqulova M.Sh.</i>	<i>The integration of technology into language teaching</i>	121
<i>Sharipova F. N.</i>	<i>Integrating technology in teaching listening skills</i>	125
2-sho'ba. O'zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida		
<i>Nazarova S. A.</i>	<i>So'z birikmasi – tibbiy atamalar “bunyodkori”</i>	131
<i>Nazarova D.G.</i>	<i>Lexicographic problems of the uzbek language</i>	136
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>Tibbiy birliklarning elektron lug'atlari xususida</i>	139
<i>Sobirova D.R.</i>	<i>Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili</i>	141
<i>Toirov G.I.</i>	<i>Shifokor nutqining lingvistik xususiyatlari</i>	146
<i>To'rayeva Sh.</i>	<i>So'z birikmasi tibbiy terminlar tizimida</i>	150
<i>Xamidova G.Y.</i>	<i>Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного</i>	153
<i>Xojiyeva M. Y.</i>	<i>Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining tibbiyotda qo'llanilishi</i>	157
<i>Yokubova Sh. Y.</i>	<i>Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi</i>	161
<i>Yuldasheva D.N.</i> <i>Chullieva G.T.</i>	<i>Тишина и тон звука как медицинский эфемизм</i>	164
<i>Navro'zova M.G'.</i>	<i>Tibbiy birliklar tadqiqi</i>	172
3-sho'ba. Tibbiyot ta'limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi		
<i>Ahmadova U.Sh.</i> <i>Bozorova G.Z.</i> <i>Mirjonov N.N.</i>	<i>Tibbiyot sohasida perifrazarlar</i>	174
<i>Абдуллина А.Б.</i>	<i>Мұқағали Мақатаев әңгімелеріндегі психологизм</i> <i>Psychologism in the stories of mukagali Makatayev</i>	179
<i>Adizova Nigora</i> <i>Adizova Nodira</i>	<i>Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari</i>	182
<i>Gafurova N.T.</i> <i>Hikmatov N.I.</i>	<i>Значение языка в развитии высшего образования</i>	185
<i>G'aybullayeva N.I.</i>	<i>Tibbiy lingvistik birliklar platformasining amaliy ahamiyati</i>	190
<i>Hayitov Sh.A.</i>	<i>Alisher Navoiy tib ilmi va tabiqlar haqida</i>	195
<i>Haydarova N.A.</i>	<i>The importance of metaphors usage in medical discourse</i>	200
<i>Jumayeva M.</i>	<i>O'zbek xalq maqollarida tibbiy birliklarning qo'llanilishi</i>	204
<i>Kobilova F.T.</i>	<i>The problems of research on methods of foreign filology teaching with innovative approach</i>	207
<i>Raximov M. M.</i>	<i>Linguotherapy as the method of treatment</i>	211
<i>Xalikova M.X.</i> <i>Teshayeva M.Sh.</i>	<i>Shoshiyning tibbiyot ilmiga bag'ishlangan “qonuni bositiy” asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarning lingvistik tahlili</i>	214
<i>Niyozova M.F.</i>	<i>Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning</i>	218

	<i>qo'llanilishi</i>	
4-sho'ba. Tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi		
<i>Yusupova D.Y.</i>	<i>Tilshunoslikda evfemizm hodisasi talqini (H.Xudoyberdiyeva she'rlari asosida)</i>	222
<i>Қалиев Е.М.</i>	<i>«Ант» драмалық дастанының тарихи және фольклорлық негізі Historical and folklore basis of the dramatic saga "The Oath"</i>	228
<i>Yuldasheva M.M.</i>	<i>Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirish</i>	232
5-sho'ba. Amaliy filologiyani rivojlantirish - davr talabi		
<i>Ashurbayeva R.Q.</i>	<i>Yosh avlodda tibbiy madaniyatni rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati</i>	237
<i>Istamova S. I.</i>	<i>Taqlid so'zlarning tibbiyotda qo'llanilishi</i>	241
<i>Qobilova A.B.</i>	<i>O'zbek va ingliz tili tibbiy perifrazalarining kognitiv-morfologik xususiyatlari</i>	245
<i>Toshtemirova S.</i>	<i>Tibbiyot lingvistikasi: vujudga kelishi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari</i>	248